

“TA’LIM NAZARIYASI” FANIDAN YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

1. Ta’lim nazariyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Ta’lim nazariyalari qaysi ijtimoiy, madaniy va pedagogik sharoitlar ta’sirida shakllanadi?
3. Biror nazariya ilmiy deb tan olinishi uchun qanday mezonlardan o’tadi?
4. Pedagogik nazariyalarni yaratishda empirik dalillar qanday ilmiy asos vazifasini bajaradi?
5. Ta’lim nazariyalarini qaysi asosiy konseptual guruhlarga ajratish mumkin?
6. Ta’lim nazariyalarining bir-biridan farqlanishiga qanday omillar sabab bo’ladi?
7. Ta’lim nazariyalarining ijtimoiy kontekst bilan bog’liqligi qaysi jihatlarida namoyon bo’ladi?
8. Ta’lim nazariyalari vaqt o’tishi bilan qanday mexanizmlar orqali yangilanadi va takomillashadi?
9. Ta’lim nazariyalarini amaliyot bilan qiyoslash nima uchun muhim ilmiy va pedagogik ahamiyatga ega?
10. Ta’lim nazariyasi va ta’lim metodikasi o’rtasidagi farq nimada?
11. Zamonaviy nazariyalar avvalgi nazariyalardan qanday jihatlarida ustun?
12. Ta’lim nazariyalarining ilmiy asoslanishi qanday bosqichlardan iborat?
13. Nazariyani isbotlash uchun qanday tadqiqot metodlaridan foydalaniladi?
14. Ta’lim nazariyasida mavjud bo’lgan cheklovlarni qanday usullar orqali aniqlash mumkin?
15. Nima uchun bir muammo uchun bir nechta nazariya mavjud bo’ladi?
16. Behaviorizm qaysi tarixiy davrda shakllangan?
17. Behaviorizmning asosiy g’oyasi nimani ta’kidlaydi?
18. Torndaykning “Ta’sir qonuni” nimani anglatadi?
19. Torndaykning tajribalari ta’limga qanday ta’sir ko’rsatgan?
20. Uotsonning o’rganishga bo’lgan behavioristik yondashuvi nimadan iborat?
21. Uotsonning mashhur “Kichik Albert” tajribasidan qanday xulosa chiqarilgan?
22. Pavlovning shartli refleks nazariyasi ta’lim jarayoniga qanday tatbiq etiladi?
23. Pavlov tajribalarida stimul va javob qanday bog’langan?
24. Skinner operant o’rganishni qanday tushuntiradi?
25. Skinnerning “mustahkamlash” tushunchasi nimani anglatadi?
26. Behaviorizmga ko’ra inson xulqi qanday shakllanadi?

27. Behaviorizm ta'lim yondashuvi o'quvchini qanday tipdagi shaxs sifatida talqin qiladi?
28. Behavioristik modelning kuchli tomonlari nimalardan iborat?
29. Behavioristik modelning cheklovlari nimalardan iborat?
30. Bugungi zamonaviy ta'limda behaviorizm qaysi sohalarda qo'llanadi?
31. Rag'bat va jazolashning ta'limdagi o'rni qanday tushuniladi?
32. Onlayn kurslarda behavioristik yondashuv qanday ko'rinadi?
33. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarida behaviorizm tamoyillarining integratsiyasi qaysi shakllarda namoyon bo'ladi?
34. Behavioristik yondashuv kompetensiyaga asoslangan ta'limda qanday shakllarda ishlaydi?
35. O'quvchilarda barqaror odat va xulq-atvor shakllanishida behaviorizm yondashuvining o'rni qanday namoyon bo'ladi?
36. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi deganda nima tushuniladi?
37. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nima?
38. Yaqin rivojlanish zonasini ta'limda qanday qo'llash mumkin?
39. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, tafakkur jarayoni til orqali qanday shakllanadi va unda tilning ta'siri qanday namoyon bo'ladi?
40. Ijtimoiy-madaniy muhit o'rganishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
41. Banduraning "kuzatish orqali o'rganish" g'oyasi nimani bildiradi?
42. Banduraning Bobo-dol tajribasi nimani isbotladi?
43. Model asosida o'rganish qanday mexanizm orqali kechadi?
44. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi motivatsiyani qanday izohlaydi?
45. O'qituvchi rol modeli sifatida qanday ta'sir ko'rsatadi?
46. Talabalarda ijtimoiy ko'nikmalar qanday shakllanadi?
47. Jamoadagi o'rganish ijtimoiy nazariyada qanday izohlanadi?
48. O'z-o'zini nazorat qilish tushunchasi nimani anglatadi?
49. Ijtimoiy ta'sir o'quv jarayonining qaysi bosqichida kuchliroq bo'ladi?
50. Vygotskiy va Bandura o'rtasidagi umumiyliklar qanday?
51. Vygotskiy va Bandura o'rtasidagi farqlar nimada?
52. Ijtimoiy o'rganish raqamli muhitlarda qanday namoyon bo'ladi?
53. Peer-learning nima va u qanday ishlaydi?
54. Talabalarning mustaqil o'rganishida ijtimoiy muhitning roli qanday?
55. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi 21-asr o'qitilishida qanday ahamiyatga ega?
56. Kognitivizm o'rganishni qanday tushuntiradi?
57. Axborotni qayta ishlash modeli nimaga asoslanadi?
58. Kognitiv jarayonlarning asosiy bosqichlari qaysilar?
59. Piagetning rivojlanish bosqichlari qanday?

60. Sensomotor bosqichning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
61. Preoperatsion bosqichda qanday fikrlash shakllanadi?
62. Konkret operatsiyalar bosqichi qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?
63. Formal operatsiyalar bosqichi qaysi ko'nikmalarni beradi?
64. Piagetga ko'ra bola bilimni qanday quradi?
65. Brunerning "kognitiv strukturalar" g'oyasi nimani anglatadi?
66. Brunerning spiral kurikulum tamoyili qanday ishlaydi?
67. Banduraning kognitiv elementlari nimalardan iborat?
68. Kognitivizmda motivatsiya qanday tushuniladi?
69. Ta'lim jarayonida e'tiborning roli qanday?
70. Xotira turlari o'rganishga qanday ta'sir qiladi?
71. Kognitiv yuklama nazariyasi nimani tushuntiradi?
72. Kognitivizmning kuchli tomonlari nimalar?
73. Kognitivizmning zaif tomonlari nimadan iborat?
74. Kognitiv yondashuv zamonaviy dars dizaynida qanday qo'llanadi?
75. Kognitivizm texnologiyalar orqali qanday kuchaytiriladi?
76. Konstruktivizm nimani asosiy nuqta deb oladi?
77. Piaget konstruktivizmning qaysi jihatlariga hissa qo'shgan?
78. Vygotskiy konstruktiv ta'limni qanday izohlaydi?
79. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, o'quvchi bilimni qanday jarayonlar orqali mustaqil ravishda "quradi"?
80. Brunerning Discovery Learning tamoyili nimaga asoslanadi?
81. Faol o'rganish jarayoni konstruktivistik yondashuv nuqtai nazaridan qanday talqin qilinadi va baholanadi?
82. Konstruktivizmga ko'ra, muammo asosida o'rganish qanday jarayonlar orqali amalga oshadi?
83. Hamkorlikda o'rganish nega konstruktivistik yondashuvning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi?
84. Konstruktivizmning asosiy afzalliklari nimalardan iborat?
85. Konstruktivizmning asosiy kamchiliklari nimalar?
86. O'quv jarayonida o'qituvchining roli qanday o'zgaradi?
87. Konstruktivistik yondashuv baholash usullarini qanday o'zgartiradi?
88. Raqamli muhitlarda konstruktivizmning qo'llanishi qanday?
89. Loyihaviy ta'lim konstruktivistik yondashuv tamoyillariga qaysi jihatlar bilan mos keladi?
90. Konstruktivistik yondashuv 21-asr kompetensiyalarini rivojlantirishga qanchalik va qanday jihatlar orqali xizmat qiladi?
91. Freydning psixoanalitik nazariyasi o'rganishga qanday ta'sir qiladi?

92. Yungning arxetiplar g'oyasi o'quvchini qanday anglashga yordam beradi?
93. Eriksonning psixososial bosqichlari ta'limda qanday ahamiyat kasb etadi?
94. Gumanizmning asosiy g'oyasi nimani ta'kidlaydi?
95. Maslouning ehtiyojlar piramidasi ta'limda qanday ishlaydi?
96. Rogersning "talaba markazidan yondashuv"i nimani anglatadi?
97. Montessori metodikasi o'quvchini qanday mustaqillikka undaydi?
98. Mezirownig transformativ o'rganish nazariyasi qanday jarayonni tushuntiradi?
99. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi o'quvchi rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
100. 21-asrda o'quvchi identiteti va mustaqilligi qaysi nazariyalar asosida yangicha talqin qilinmoqda?